

**O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA TOPONIMLARNING  
QO'LLANILISHI**

*Safarova Olima Mustafoyevna*

*Buxoro davlat universiteti. Lingvistika: o'zbek tili magistiri*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada “Bahor qaytmaydi” asaridagi joy nomlari haqida fikr yuritilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** toponimlar, bog', Toshkent, joy, qishloq, shahar.

Joylarga qo'yilgan nomlar, ya'ni toponimlar bugungi kunda ham ma'naviy meros, ham madaniy boylik, ham tilimizning qadimiy xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan ko'hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi”

Bugungi mustaqillik davrida yoshlarni ona-vatanga muhabbat, ilm-fanga qiziqish ruhida tarbiyalashda nomlarning, xususan, toponimlarning roli benihoya kattadir. Sababi, ijtimoiy-siyosiy sohadagi har bir yangilik va o'zgarish kishilarning, yoshlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib turadi. Bu esa o'z-o'zidan nomlarga va yana ham aniqrog'i, toponimlar masalasiga qaratish zarur ekanligini eslatib turadi.

Bu – yoshlarimizni vatanparvar hamda milliy qadriyat va urf-odatlarimizga sadoqat , shuningdek, ilm-fanga ishtiyoq va qiziqish ruhida tarbiyalashda toponimlarning ahamiyati katta ekanligini ko'rsatib turibdi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam

hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala”, -deb bekorga aytmagan.

O'tgan asrning 60-70-yillarida o'zbek adabiyoti juda katta iste'dodlarni qabul qildi. Ham nazm, ham nasr, ham publitsistika o'quvchilarni maroqli mutolaaga, mushohadaga chorladi. Biz O'tkir Hoshimovni aynan o'sha avlodning zabardast vakili sifatida taniyamiz hamda asarlarini zavq bilan qayta-qayta o'qiymiz. O'tkir Hoshimovda nafosat tuyg'usi behad kuchli. Uning qahramonlari aksari go'dakday beg'ubor, nafosat tuyg'usiga boy, hissiyotli, o'ta ta'sirchan odamlardir.

“Bahor qaytmaydi” qissasi 1969-yilda yozilgan. Qissada yozuvchi iste'dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini san'atkorona tahlil etib bergan. Oradan o'tgan 52 yil qisqa muddat bo'lmasa-da, voqealar bugun ham davom etyapti. Hayotdagi Alimardon To'rayevlar uchun ushbu asar ko'zgu, hayotiy saboq bo'lsa, ajab emas.

Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha: Asarda ikki do'stning boshidan kechirgan kechmishlari yoritib berilgan. Alimardon va Anvar do'st , ammo Alimardonday do'st bo'lganidan bo'lmagani afzal. Anvarning Muqaddam ismli sevgilisi bo'ladi, uni Alimardon zo'rlaydi va o'z hasmiga oladi. Anvar bo'lsa og'zi ochilganicha ularni to'y sadolarini eshitadi. Alimardon qo'shiqchi bo'ladi uning ishlari yurishib ketib, mashhur bo'ladi, ammo bu uzoqqa cho'zilmaydi. Mashhur vaqtlari Klara ismli ayol bilan tanishadi va u bilan aysh-u ishrat qiladi, buni xotini Muqaddam ko'rib qolib, uyiga ketib yuboradi, uyiga ham sig'magan qiz toqqa chiqib ketib turmush quradi. Alimardon bu vaqt mashhurlikdan pastga tomon harakatlangani va ichkiliksiz turolmaydigan bo'ldi. Shu vaqtda xotinini qayerdaligini bilib qoladi va uni oldiga boradi va o'g'lini ko'radi-yu, ortiga qaytadi, shu vaqt tog'dan mashinasi bilan birga avtohalokatga uchraydi.

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi"qissasida turli guruhlariga mansub keng va tor ma'nodagi joy nomlari qo'llangan. Keng ma'noda joy nomlari deganda,

umuman biror bir joyni ataydigan nomlar tushuniladi. Bular sirasiga barcha toponimlar kiritiladi. Tor ma'nodagi joy nomlariga daryo, ariq, bozor, bog' va shu kabi o'nlab nomlarni kiritish mumkin. „Bahor qaytmaydi” qissasida uchraydigan toponimlar ular ifodalagan obyektning turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari - oykonimlar tashkil etiladi. Oykonimlar:

Mamalakat nomi: O'zbekiston

Shahar nomlari: Toshkent, Yaponiya, Tojikiston

Ariq nomi: Zaxariq

Kurort nomi: Gagra

Tuman nomi: Oqqo'rg'on, Boysun, Polvontepa

Anhor nomi: Qonqus

Restoran nomi: “Toshkent”

Bog' nomi: Qodirobod

Qishloq nomi: Bo'ston, Oynatog'

Bu nomlar mavzu guruhlari bo'yicha quyidagilarga ajratilishi mumkin:

Joy nomlari: Toshkent, O'zbekiston, Yaponiya, Tojikiston va boshqalar.

Toshkent nomi asarda eng ko'p uchraydi. Chunki asar voqealari bilan bog'liq ko'plab tasvirlar shu shahar bilan aloqador.

Masalan; Toshkent! Odamlarning baxtini qanchalik bag'rikenglik, saxiylik bilan ko'ksiga sig'dirsa, baxtsizligini ham shunchalik bag'rikenglik, beparvolik bilan qarshilaydi! (O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi" qissa)

Toshkent vohasi qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim o'rin tutgan. Choch vohasida qadim va ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan joy nomlariga oid ma'lumotlar, asosan, xitoy va arab-fors manbalarida saqlanib qolgan. Vohaga

taalluqli ba'zi bir joy nomlari esa qisman sug'diy va boshqa tillardagi manbalarda uchraydi.

Oykonim deganda, shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi punktlari tushuniladi. Shahar yirik aholi punkti bo'lib, iqtisodiy, ma'muriy va madaniy markaz sanaladi.

Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi.(O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi" qissa)

Asarda anhor va ariqlar nomlari ham qo'llanilgan.

— Katta anhor ekan... — Muqaddam qirg'oqqa chiqib, yengil nafas oldi. —Oti nima?

— Qonqus... — dedi Anvar yo'l boshlar ekan.

Muqaddam taqqa to 'xtab qoldi.

— Qonqus?! (O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi" qissa)

— Qayoqqa boramiz? — dedi Alimardon kabina peshanasidagi kaftdek oynadan ko'rinib turgan Zufar Xodiyevichning aksiga qarab.

— Zaxariqdagi qirga chiqsakmikin, — dedi Zufar Xodiyevich mushtugiga sigaret qistirarkan.(O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi" qissa)

ZAXARIQ Toshkent shahridagi ariq. Yerosti suvlarining sizilishidan chuqur joyda hosil bo'lgan suv: zax, zaxkash, zix, ziykash

Xullas, "Bahor qaytmaydi" qissasining boshqa talay fazilatlari, ayniqsa, tili, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish borasidagi yozuvchi mahorati, qahramonlar psixologiyasini ochishda peyzaj tasvirining o'rni to'g'risida soatlab gapirish mumkin. Bularning har biri alohida suhbatning mavzusi bo'la oladi. Keling, mulohazalarimizga shu yerda nuqtali vergul qo'ya qolaylik. Bu deganim – asarning badiiy imkoniyatlarini kashf etish, san'atkor tomonidan matn ostiga yashiringan g'oyaviy niyatlarni topa olish haqidagi muloqotimiz yana davom

etadi. Zero, qayta mutolaa qilish jarayonida ularning sirli-sehrli fazilatlarini topa olish har qanday asarga ham daxldor bo'lavermaydi, eng yaxshi asarlardangina shunday mo'jizalarni kashf qilish mumkin. Chunki "har gal o'qiganingizda yangi ma'no topish mumkin bo'lgan badiiy asarni katta iste'dodlarga" yoza oladi. Bu O'tkir Hoshimovning ustoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriy asarlarini qayta-qayta mutolaa qilib o'rganishi tufayli chiqargan xulosasi. Dadil aytish mumkinki, O'tkir Hoshimovning o'zi ham har gal o'qilganda yangidan-yangi ma'no tashuvchi yashirin nuqtalar, imo-ishoralar topiladigan asarlar yaratgan yirik san'atkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi"(qissa) "Sharq " nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent - 2005; 91- bet.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent- 2006; 24-bet.
3. Tarixiy toponomika. Namangan -2010-yil;45-bet.
4. To'ra Nafasov, Vazira Nafasova O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. Toshkent- "Yangi asr avlodi"2007-yil 73- bet.